

Ota-Ona Qaramog'Isiz Qolgan Bolalar Tutungan Oilaga Moslashtirishning Pedagogik Mexanizmlari

D. Raximova¹

Annotatsiya: Maskur maqolada ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalarni tutingan oilaga moslashuvining da birinchi navbatda bolaning ijtimoiy moslashuvi turadi. Ijtimoiy moslashuv – bu inson tomonidan yangi ijtimoiy muhitni, ma'lum bir jamiyatning me'yorlari va qadriyatlarini rivojlantirish, o'z hayot tarzini tashkil qilish bo'yicha bilim va ko'nikmalarni egallash bilan bog'liq bo'lgan shaxs holatining integral ko'rsatkichidir. Yetimlarning ijtimoiy moslashuvi, ular yashayotgan jamiyatning qadriyatlari va me'yorlarini o'zlashtirishdan iborat.

Tayanch so'zlar: Moslashtirish, yo'qotilgan ijtimoiy aloqalar, hissiy-emotsional daraja, emotsional-ijtimoiy, munosabatda bo'lish, so'zsiz qabul qilish, unga muhabbat va hurmat.f.

Mamlakatimizda yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni tarbiyalashning tubdan yangilangan tizimini joriy etish, ularning barkamol avlod sifatida shakllanishi hamda ijtimoiy moslashuvini ta'minlash uchun zarur shart-sharoitlar yaratish[19]ga katta e'tibor qaratilmoqda. Shuningdek, ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalar va yetim bolalar uchun ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etishning yangi usullarini ishlab chiqish, innovatsion texnologiyalari asosida bolalarni jismonan, ma'naviy-axloqiy tarbiyalash, dunyoqarashi va intellektini rivojlantirishning ta'sirchan pedagogik mexanizmlarini ishlab chiqish ustuvor vazifalar sifatida belgilab berilgan. Bu esa, ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalarni tarbiyalanuvchilarini oilavga moslashtirishning psixologik-pedagogik xususiyatlarini aniqlashtirish, yetim va ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalarda oilararvarlikka xos sifatlarni shakllantirish modeli va pedagogik shart-sharoitlarini ishlab chiqishni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni[23], 2019 yil 11 fevraldagi PQ-4185-sonli "Yetim bolalar va ota-onasining qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni ijtimoiy himoya qilishni kuchaytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorda belgilangan vazifalarni amalga oshirish muxim xisoblanadi .

2019 yil dekabr oyidan boshlab, Yevropa davlatlarining noinstitutallashtirish, yetim va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar uchun davlat muassasalari faoliyatini optimallashtirish sohasidagi tajribalarini o'rganish hamda o'rganishning yakunlari natijasida tahliliy ma'lumotnoma tayyorlash va respublikada faoliyat olib borayotgan yetim va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar uchun davlat muassasalari faoliyatini optimallashtirish bo'yicha asoslantirilgan takliflar ishlab chiqish zarurati paydo bo'lgan.

Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarini oilaviy hayotga tayyorlashda birinchi navbatda bolaning ijtimoiy moslashuvi turadi .Shu ma'noda mavzu yuzasidan o'rganiladigan tushunchalarga to'xtalib o'tishga xarakat qilamiz.

Ijtimoiy moslashuv – bu inson tomonidan yangi ijtimoiy muhitni, ma'lum bir jamiyatda qabul qilingan qoidalar, me'yorlar va qadriyatlarni rivojlantirish, o'z hayot tarzini tashkil qilish bo'yicha bilim, malaka va ko'nikmalarni egallash bilan bog'liq bo'lgan shaxs holatining integral ko'rsatkichidir. U boshqalarning xatti-harakatiga ko'ra o'zgarishi mumkin.

Шuningdek, yetimlarning ijtimoiy moslashuvi deganda, ularning ijtimoiy munosabatlar tizimidagi ijtimoiy rollarini muvaffaqiyatli o'zlashtirilishi tushuniladi. "Moslashuv" zamonaviy falsafiy

¹ NamDU tayanch doktoranti



ensiklopediyada “tashqi muhit taʼsirida tirik mavjudotning oʻzgarishi va ushbu oʻzgarishning natijasi” sifatida talqin etiladi. Ushbu jarayonda yetim bola bir vaqtning oʻzida ijtimoiy munosabatlarning obyekti va subyekti sifatida harakat qiladi.

Yetim bolalarning ijtimoiy moslashuvi haqida gapirganda, ular buni odatda pedagogik va tarbiyaviy chora-tadbirlar majmuasi sifatida tushunadilar. Aslida, har bir bola rivojlanish jarayonida ushbu jarayondan oʻtadi.

Bolani tutinga oilaga moslashtirish ijtimoiy himoyaning tarkibiy qismlaridan biridir. Bu jamoat munosabatlari tizimida oʻz rolini rivojlantirishni oʻz ichiga oladi. Bunga uy sharoitida saqlash, oʻz-oʻzini parvarish qilish va mehnat koʻnikmalarini shakllantirish orqali erishiladi.

Bolalar tutinga oilaga bolalarni moslashtirishning quyidagi bosqichlari ajralib turadi:

- Tayyorgarlik masalasi tutinga oilaga oʻtishi kiritilgan paytdan boshlab u ijtimoiy diagnostika, maqomni aniqlash, tarbiyalangan bolaning shaxsiy xususiyatlari bilan tanishish bilan bogʻliq;
- Ijtimoiy guruhga qoʻshilish - bu bolalar tutinga oilaga sharoitlariga moslashishga yordam berishni oʻz ichiga oladi;
- Tajriba, yangi bilim va koʻnikmalarni toʻplash bilan turli tadbirlarda qatnashish orqali rollarni taqsimlash;
- Amalga oshish mexanizmi boʻyicha ijtimoiy-psixologik adaptatsiya ixtiyoriy va majburiy turlarga ajratiladi.

Ixtiyoriy adaptatsiya - insonning xohishi, moyilligi orqali roʻyobga chiquvchi holatdir. Odam oʻziga zid, hatto unga yoqmaydigan salbiy, xohishga qarama-qarshi ijtimoiy hodisa va vaziyatlarga ilojsiz ravishda moslashishi mumkin (tutqinlik, zoʻravonlik, vahobiylik, diktatura va hokazo). Bunday toifadagi ijtimoiy moslashuv - majburiy adaptatsiya deb nomlanadi. Bu tipdagi adaptatsiya inson psixikasiga zarar keltirishda, yaʼni shaxsning axloqiy, intellektual sifatlarining deformatsiyasi hisobiga kechadi, unda mental va emotsional buzilishning avj olishi natijasida muhitning (makro, mikro, mize) oʻzgarishiga olib keladi, hatto inson oʻz ruhiy olamini oʻzgartirish oʻquvidan ham mahrum boʻladi.

Ijtimoiy psixologiya sohalarida “*adaptatsiya*” termini bilan bir qatorda «*readaptatsiya*» tushunchasidan ham foydalaniladi. Insonning turmush tarzi va faoliyati mazmuni shart-sharoitlarida tub oʻzgarishlarning sodir boʻlishi tufayli uning shaxsiyatida, xarakterologik xususiyatlarida qayta qurilishlar, yangilanishlar jarayonining kechishi readaptatsiya deb ataladi. Jumladan, tinchlik, osoyishtalik holatidan harbiy vaziyatga, oʻz vatanini tark etib, oʻzga yurtda qoʻnim topish, yakkay-u yolgʻiz turmush kechirish, oilaviy hayotiga koʻnikish va hokazo. Odatda, adaptatsiya bilan readaptatsiya tushunchalari oʻzaro bir-biridan shaxs psixikasida qayta qurilishlar, yangilanishlar kechishining darajasi bilan farqlanadi. Adaptatsiya jarayoni psixokorreksiya, ruhiy qayta qurilishni tugallash, takroriy shakllanish, shaxs psixikasining baʼzi funksional sistemasini qisman qayta qurish bilan bevosita bogʻliq. Readaptatsiya qarda shaxsning qadriyatlarini, maʼnaviy darajasi, maqsadi, xulq normalari, extiyojiy-motivatsion doirasi mazmunan, usluban qarama-qarshilikka duch kelsa, sodir boʻladiki, u holda muayyan darajada oʻzgarishlar amalga oshiriladi.

Oʻ.M.Asqarova bu boradi, yetim-yesirlarga qanchalik gʻamxoʻrlik koʻrsatilmasin, hech qachon oila va ota-onalarning oʻrnini bosolmaydi, deya taʼkidlaydi. Shunday ekan, bu muammoni ijobiy hal etish uchun quyidagi zaruriy muammolarga diqqat - eʼtiborni qaratmoq lozim, deydi olima:

- maʼnaviy - axloqiy tarbiya va axloq - odobga oid tub islohotlarni oiladan boshlash, ularni musulmon eʼtiqodi asosida tashkil etish va kuchaytirish;
- bolalarni barkamol inson qilib yetkazishda roʻy bergan va berayotgan qusurlarni bartaraf etish va toʻgʻri yoʻlga qoʻyish uchun mazkur muammo oʻtmishda qanday boʻlganligi va hozirgi kunda nimalarga amal qilinayotganini tahlil etish;
- tahlil natijalari asosida ilmiy xulosalarga tayanib oilada tarbiya konsepsiyasini yaratish va amaliy takliflar berish



E.Y.To‘xmurodov tarbiyalanuvchilarni mehribonlik uylaridagi faoliyatini tashkil etish va muassasa muhiti bo‘yicha bildirgan fikrida shunday deydi: “Bolalar uyi tarbiyalanuvchilari jamoa shaklida yashaganlari sababli ularda o‘ziga xos ish uslubi mavjuddir. Bolalar uyida oilaviy hayot tarzining yo‘qligi bolaning ruhiy holatiga hamda sog‘ligiga salbiy ta‘sir etadi

Olim bunday bolalarning tarbiyasini mukammal bo‘lmog‘i uchun quyidagilarga e‘tibor bermoq lozimligini aytib o‘tadi:

1. Bolaga o‘z o‘tmishini hech qachon eslatmaslik. Bu bola tarbiyasining birinchi sharti.
2. Bola shaxsiga nisbatan hurmat va talabchanlik.
3. Bolalar uyidagi yetimlarni ichki dunyosini, xarakteri va o‘z-o‘ziga bo‘lgan munosabatini o‘rganish.
4. Bolaga va uning atrofidagi shaxslarga, mehnatiga, shuningdek, uning jamoada o‘zini tutishi, faolligi yoki faoliyatsizligiga o‘z vaqtida to‘g‘ri baho berish.
5. Bolalarning o‘sishi, ularning ruhiy holatida sodir bo‘layotgan o‘zgarishlarni aniqlash.

Ota-onalaridan biri yoki ikkalasi alkogolizm, narkologiyaga chalingan, onasi ijtimoiy og‘ishgan (fohisha, narkoman, bolani tarbiyalashdan bo‘yin tovlaydigan), ota-onalaridan biri ozodlikdan mahrum bo‘lgan yoki ruhiy nosog‘lom bo‘lganligi uchun ota-onalik huquqidan cheklangan va boshqa.

Foydalangan adabiyotlar

1. Saidova D.I. Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarida qadriyatlar tizimini shakllantirish texnologiyasi: pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diss. -T., 2020. 125 b.
2. Davronova D. S. Oilada voyaga yetmagan bolalarning ijtimoiy ongini tarbiyalash tizimini rivojlantirish: ped.fan.bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dicc. Samarqand - 2018.-178 b.
3. <http://nauka-pedagogika.com/pedagogika-13-00-05/dissertaciya-sotsialno-pedagogicheskaya-podderzhka-materey-vypusknits-detskihdomov>
4. Cotsialno-ekonomicheskiye aspekty razvitiya sovremennogo obshchestva. <http://elibrary.ru/item.asp>
5. Asqarova O‘.Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarini ijtimoiy xayotga tayyorlash tizimi, Monografiya T;- Fan , 2019y , 219 b

